

Rag'batlantirish: «50% chegirma bilan alohida toifadagi raqam taqdim etish»

#### **Rag'batlantirishni taqdim etish shartlari:**

- Ishtirokchining keshbek hisobida u tanlagan Abonent raqami bo'yicha «Alohida toifadagi raqam taqdim etish» xizmati narxining 50% dan kam bo'lmagan mablag' bo'lishi kerak. Ushbu Rag'batlantirish tanlangani tasdiqlanganidan so'ng Ishtirokchining keshbek hisobidan tanlangan raqam bo'yicha xizmat narxining 50 foiziga teng mablag' yechib olinadi;
- Rag'batlantirishni amaldagi aloqa xizmatlarini taqdim etish to'g'risidagi shartnoma doirasida ham, aloqa xizmatlarini taqdim etish haqidagi shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab ham rasmiylashtirish mumkin (biroq faqat shartnoma 19.08.2020 dan 30.11.2020 gacha bo'lgan davrda tuzilgan bo'lishi kerak).
- Ishtirokchi Rag'batlantirishga buyurtma berishning amal qilish muddati davrida Mobil ilova orqali uning interfeysining ko'rsatmalariga rioya qilgan holda alohida toifadagi raqamni tanlashi kerak.

#### **Rag'batlantirishdan foydalanish shartlari**

- Alohida toifadagi raqamdan Ishtirokchi 15.09.2020 sanasidan keyin «Humans» bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish haqida Shartnoma tuzgan holda foydalanishi mumkin bo'ladi. Rag'batlantirish doirasida tanlangan Abonent raqami Ishtirokchida 365 kun saqlanib qoladi. Ushbu vaqt ichida Ishtirokchi Aloqa xizmatlari bo'yicha Shartnoma tuzishi hamda Mobil ilova orqali Rag'batlantirish doirasida tanlangan Abonent raqamini ulashni tasdiqlashi kerak bo'ladi. «Humans» bilan Aloqa xizmatlari bo'yicha amaldagi Shartnoma bo'lgan holda Rag'batlantirish olinsa, tanlangan Abonent raqamini ulash Rag'batlantirish olinganidan keyin avtomatik ravishda amalga oshadi.

#### **Rag'batlantirish tavsifi**

Rag'batlantirish Ishtirokchiga «Alohida toifadagi raqam taqdim etish» xizmatiga 50% chegirma bilan buyurtma berish imkonini yaratadi.

**«Alohida toifadagi raqam taqdim etish»** xizmati Mijozga Provaydarning xizmat ko'rsatish paytida bo'sh numeratsiya resursidagi ma'lum mezonlarga mos keluvchi Abonent raqamini tanlash imkonini beradi. «Alohida toifadagi raqamni taqdim etish» xizmatining narxi Ishtirokchi tomonidan tanlangan raqam toifasiga bog'liq. Narxlar bo'yicha batafsil ma'lumot: [O'zbekiston hududida amal qiluvchi tarif rejalari, tarif paketlari va opsiyalar](#) «Humans»ning O'zbekiston hududida amal qiladigan tarif rejalarning tavsifi Provayder saytida jolashtirilgan